



**SHARQ ISLOM ADABIYOTIDA YARATILGAN AGIOGRAFIK  
ASARLARDA ADABIY JANRLAR ("QISASI RABG'UZIY"  
MISOLIDA)**

**Xayrullayeva Huriniso Jahongir qizi**

ToshDO'TAU magistranti

huriniso xayrullayeva@gmail.com +998900146089

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7559589>

**ARTICLE INFO**

Received: 13<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 23<sup>th</sup> January 2023

Online: 23<sup>th</sup> January 2023

**KEY WORDS**

*Payg'ambarlar tarixi, janr, hikoyat, latifa, rivoyat, savol-javob, hikmat, hadis.*

**ABSTRACT**

*Agiografik yo'nalishda yaratilgan sharq adabiyoti namunalari o'zining g'oyaviy- badiiy xususiyati bilan alohida mavqega ega hamda adabiy asar sifatida Payg'ambarlar, avliyolar tarixi va ularning go'zal fazilatlarini axloqiy jihatdan yoritgani uchun ham qimmatli. Xususan, "Qisasi Rabg'uziy" turkiy tilning noyob durdonasi bo'lib, asarda keltirilgan adabiy janrlar dalillash, boyitish, izohlash va badiiylikni oshirish kabi vazifalarni bajargan.*

Sharq mumtoz adabiyotida yaratilgan akasariyat asarlar o'zida faqatgina janriy xususiyatlarni jamlamasdan, islom dini, uning pok axloqiy ta'limoti va ezgu g'oyalarini ham keng targ'ib etganligi sababidan ham beqiyos qimmatga ega. Bunda xususan, "Qisasi Anbiyo" tipidagi asarlarning salmog'i katta. Shu o'rinda biz sharq adabiyotida mazmun va janr jihatidan to'liq agiografik yo'sinda yaratilgan: Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo", "Nasoyimu-l muhabbat", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Mahmud" kabi asarlarni sanashimiz mumkin. Homidjon Homidiy XV – XVI asrlardagi ageografik asar xususida so'z yuritarkan quyidagilarni yozadi: " Dastlab Abdurahmon Jomiy, keyinchalik Navoiy sardorlik qilgan bu katta ijodiy maktabda ilmiy – nazariy bahslar qissaxonliklardan tashqari voizlik, latifago'ylik, lutf va zarofatga juda katta e'tibor beriladi. Mushoirayu mubohislarda o'tmish va zamon voqealari, buyuk kishilar hayoti va faoliyati xususida hikoyatlar keltirishar, Qur'oni Karim-u payg'ambar hadislaridan qiroat qilishardi. Keyinchalik bunday hikoyatlar "Habibu – s – siyar", "Makorimu-l-axloq", "Majolisun-oshiqin", "Badoe-ul-vaqoe", "Nafohat-ul-uns", "Futuvvatnoma" singari asarlar tarkibiga kiritildi" (Homidjon Homidiy, 1999, 239 - b).

Mumtoz adabiyotda yaratilgan bunday axloqiy – ta'limiy asarlarda aynan agiografik hikoyatlar keltirilgan bo'lib, keyinchalik bu adabiyotimizning go'zal an'nasiga aylangan. Har bir ageogirafik asar janr va mavzu jihatidan o'xshash bo'lsada ammo, ulardagi muallif ijodiy uslubi o'zgacha. "Qisasi Rabg'uziy"da muallif asarning badiyatiga ko'p urg'u bergan bo'lsa, Navoiy asarlarini o'z axloqiy qarashlari bilan boyitishga intilgan. Bunday bir – biriga o'xshamagan yonadashuv turkiy adabiyotda agiografik asarlarni "holot", "manqaba", "manoqib", "maqoma", va ba'zan "tazkira", "shajara", "tarix" istilohlari bilan nomlanishida ham ko'rinadi. Ushbu asarlar nafaqat mazmuni jihatidan balki ular tarkibida keltirilgan turli nasriy



va she'riy janrlarning qo'llanishi ham turlicha bo'lgan. Biz quyida shunday asarlarning go'zal namunasi " Qisasi Rabg'uziy" haqida so'z yuritamiz

"Qisas ar-Rabg'uziy" asari turkiy tilda yozilgan dastlabki nasr namunalariidan biridir. Muallif uni mo'g'ul beklaridan biri To'qbug'abek iltimosi va homiyligida 710 hijriy yil (milodiy 1310 yil)da yozib tugallaydi. Shu sababdan, asar boshlanishida To'qbug'abekning fazilatlarini madh etilgan qasida keltiriladi hamda mazkur qasida mumtoz adabiyot janri bo'lmish qasidaning talablarini bajargan

Rabg'uziy asarni yozishda Qur'ondan, Abu Ishoq Nishopuriyning forscha «Qisas ul-anbiyo»sidan, Vahb ibn Munabbihning arab tilidagi «Ka'b ul-axbor» asaridan alohida foydalanganligi qayd etiladi.

Muallif asarining yana bir ahamiyatli jihati shundaki, qissalar keltirishdan avval barchasini asl manbalar, sahih hadislar hamda rivoyatlardan olinganligini aniqlash barobarida barcha mavjud qissa va hikoyatlarni qiyosiy jihatdan o'rgangan. Rabg'uziy no'to'g'ri dalillarni ko'rsatishda rivoyat va xabar janridan foydalangan. Shuningdek, adib tomonidan har bir qissa tarkibida «savol» va uning davomi o'laroq «javob» kabi maxsus qism ham keltirilgan ekan, voqealarga aniqlik kiritish hamda dalillarni ishonchli ekanligini isbotlashda aynan shu usuldan foydalanilgan.

Abdurauf Fitrat asar tarkibiga kirgan mustaqil hikoya va she'rlarga alohida to'xtaydi, o'zining «Adabiyot qoidalarini», «O'zbek adabiyoti namunalarini» singari darslik va qo'llanmalariga kiritadi. Jumladan, «Qisas ar-Rabg'uziy»ning Yusuf alayhissalom qissasidan o'rin olgan

Sabo esnayur-da yig'och bong solar,  
Bulut yig'layur-da, chechaklar kular.  
Bu mundog' chechaklarda ko'nglum bu kun,  
Sening birla o'lturub ovunmoq tilar

parchasini yuksak badiiyat namunasi sifatida baholaydi. ( Abdurauf Fitrat, 2006, 4- jild)

Mazkur yozma yodgorlik insoniyatning paydo bo'lishi va avval yashab o'tgan payg'ambarlar tarixini hikoya qilar ekan, unda Odam Ato va Momo Havodan tortib, Muhammad (s.a.v.)gacha yashab o'tgan payg'ambarlarning hayoti, ezgu amallari, aqlan va teran o'ylangan o'y-fikrlari hikmatlar, rivoyatlar orqali mohirona aks ettirilgan. Umumiy jihatdan sharhlaganimizda asarda Sharq falsafasi va qadimiy milliy qadriyatlarimizni o'zaro uyg'unlashib ketganligining guvohi bo'lamiz.

Mazkur asarni adabiy manba sifatida tadqiq etilishi XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. 1859-yilda asar tatar ma'rifatparvarlaridan biri bo'lgan Rahmatullo Amirxonov tomonidan o'rganilib, olim uni boshqa mavjud qo'lyozmalar bilan taqqoslab ko'rgan holda asarning tanqidiy matnini yaratishga muvaffaq bo'ladi. Shuningdek, yodgorlik yuzasidan yana boshqa ma'lumotlarni 1922 yilda bosilgan «Tatar adabiyoti tarixi»da Oltin O'rda davrga tegishli qimmatli adabiy manba sifatida «Qissas ul-anbiyo»ni o'sha davr uchun eng nodir manba, kitobxonlar uchun g'oyat qiziqarli, ibratli asar sifatida o'sha davrning boshqa janrdagi asarlarini o'rnini to'ldirganligini aytib o'tiladi.



Ma'rifatchilik adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lgan Fitrat 1928 yilda «O'zbek adabiyoti namunalari» to'plamida mazkur asarga maxsus o'rin ajratadi hamda kitobxonlar bu manbadan katta ma'rifiy-tarbiyaviy jihatlarni o'ziga singdirishi alohida e'tirof etiladi.

Shuningdek, T.G'ofurjonovanning ham samarali izlanishlarini alohida e'tirof etish joiz. U «Qisas ar-Rabg'uziy» asari haqida to'xtalar ekan, XI asr oxiri XIV asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti tarixida, xususan, nasr janri taraqqiyotida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan yodgorlik ekanligini alohida e'tirof etadi. Shu bilan birgalikda tadqiqotchi lirik janr haqida gapirar ekan, «...Asardagi she'riy parchalar g'azalchilik taraqqiyotining tadriji sifatida qimmatlidir» degan xulosalarini berib o'tadi.

Rabg'uziy yaratgan mazkur yodgorlik badiiy asar hisoblanib, u jami 72 qissadan iborat. Jumladan, har bir qissa tarkibida hikoyat, latifa, rivoyat, savol-javob, hikmat, hadis kabi kabi bir qancha janrlar umumlashmasi mavjud. Xususan, ularni barchasini alohida izohlab o'tamiz.

Hikoyat – mazkur janr qissa tarkibida kelib, yozuvchi qissa qahramoni bo'lmish biron bir payg'ambar yoki umuman asarda berilgan boshqa bir shaxs hayoti va faoliyati yuzasidan voqeani tasdiqlash va o'sha voqea mazmuniga hamohang tarzda hikoyat berib boradi. Shuningdek, hikoyatlarning ayrimlari bayon qilinish usuli jihatdan ertaklarnikiga o'xshaydi. Qissalar tarkibida keltirilayotgan hikoyatlar syujetiga afsonaviy ruh va mazmun singdirilgan holda hikoyatning didaktik mohiyatiga alohida urg'u beriladi. Bular o'z navbatida asarda keltirilgan hikoyatlarning turli tuman ko'rinishini hosil qilgan. Shuning barobarida hikoyalarda muallif pozitsiyasi, badiiy asar mazmuni, his-tuyg'ular etakchiligi, axloqiy tarbiyaning asosiy maqsadga ko'tarilganligi ham diqqatga sazovordir.

Rivoyat – bu janr ham hikoyat singari qissalar tarkibida qo'llanilgan. Asarda yoritilgan rivoyatlar mavzu ko'lami jihatidan turlicha bo'lib, hajman hikoyatga nisbatan kattaroq, rivoyat qahramonining mo'jizalarini, uning hayoti va faoliyatiga doir voqealarini izohlaydi. Shuningdek, rivoyatlarda ma'lum ma'noda tarixiylik tamoyilini his qilishimiz mumkin. Bundan tashqari afsonaviy ruhning epik talqini keltirilgan rivoyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida gavdalanadi.

Misol sifatida aytishimiz mumkinki, Odam alayhissalom qissasida keltirilgan qurbonlik udumlarining paydo bo'lish sabablariga oid rivoyatning keltirilishi ham ayni fikrimiz dalilidir. Rabg'uziy ayrim rivoyatlarda tarixiy dalillarni ko'proq keltirar ekan, bu bilan asarning haqqoniyligini yoritishni maqsad qiladi.

Hikmat – asarda o'ziga xos xususiyatga ega. Shakliy jihatdan mazkur janr ham rivoyat, hikoyat janridan ayro emas. Rabg'uziy hikmatlarni «bilimdonlik», «donishmandlik» ma'nolari bilan birga «sir» ma'nosida ham qo'llaydi. Shu ma'noda adib hikmatlarida falsafiy mazmun, teran o'ylab topiluvchi mulohazalar asosiy o'rinni egallaydi. Ahamiyatli jihati shundaki, Rabg'uziy aynan hikmat janriga asosiy e'tiborni qaratadi hamda hikmatlar qissa janrining kaliti vazifasini o'taydi. Qissadagi ma'lum bir voqeaning sabab va natijalarini aniqlash, qissaga yuklatilgan maqsad va g'oyalarni o'quvchiga yanada tushunarliroq qilib etkazish vazifasini bajaradi.

Qissa – mazkur asarda eng asosiy etakchi janr bo'lib, Rabg'uziy ayni shu janr atamasini bugungi kundagi mustaqil asar sifatida qo'llaydi. Aynan har bir qissa tarkibining tuzilishi, voqealar bayoni, kompozitsiyasi ham ayni fikrimizni tasdiqlaydi. Bu ta'riflardan kelib chiqadiki, har bir qissa mustaqil badiiy asar singari xususiyatga ega. «Qisas ar-Rabg'uziy»da



berilgan qissalar izchil xronologik tizimni o'zida jamlaydi. Keltirilgan har bir qissada ma'lum bir maqsadga yo'nalganlikni ko'rish mumkin. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, asarda berilgan qissalar barcha payg'ambarlar to'g'risida hikoya qiluvchi qissalardan hajman va tuzilish jihatidan tafovutga ega. Misol uchun, Nuh payg'ambar qissasida hikoya qilingan voqealarni yahudiy va islom manbalarida keng tarqalgan an'anaviy va doimiy qalamga olinuvchi To'fon afsonasi bilan solishtirganda keskin farq sezilmaydi. Ayrim qissalar bir necha janrlar tizilmasida vujudga keladi. Shuningdek, ma'lum bir payg'ambar haqidagi qissa faqat birgina voqealarni emas, balki ishonchli manbalar va xalq orasida yuruvchi afsona va rivoyatlarni ham o'zida jamlaydi. Mazkur asarda qissa janrining yana bir xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni adib biron voqea-hodisa haqidagi hikoya yoki rivoyatni ham qissa nomi bilan ataydi. Xususan, «Qissai binoi Ka'ba», «Chugurtka qissasi», «Tavrot qissasi» singari qissalar ayni shular jumlasidandir.

Lirik tur – mazkur turning ko'plab janrlari qissalarning har birida alohida keltiriladi. Ayrim qissalar aynan she'r bilan boshlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuni alohida e'tirof etish kerakki, asarda keltirilgan barcha she'rlarning muallifi aynan Rabg'uziy hisoblanadi. Qissa boshlanar ekan, debocha qismida Rabg'uziy har bir qahramonning fazilati, layoqati, axloqi, Alloh tomonidan in'om qilingan qobiliyatlarini izohlovchi maxsus she'r keltiradi. Bevosita she'rda keltirilgan fazilatlarining barchasi qissa davomida sharhlanib boradi.

Latifa – mazkur janr «Qissai Yusuf siddiq alayhissalom»da keltirilgan bo'lib, «latifa» atamasi ostida berilgan hikoyalar bugungi kundagi kabi kulgili voqealarni ifoda etmaydi, balki latifalar mo'jizaviy voqealar asosiga qurilishi bilan ayrolik kasb etadi. Shu ma'noda birinchi latifada Yusufning duosi tufayli bir qator mo'jizalar sodir bo'ladi. Ikkinchi latifada Yusuf va Zulayho o'rtasidagi mojaro haqida bo'lib, unda ham turli voqealar gavdalantiriladi.

Xabar – maxsus janr sifatida bayon qilinadi. Asardagi biron payg'ambarga oid qissada aytilmagan kichik-kichik voqealar xabar orqali beriladi. Shu holda qahramonning muhim bir qirrasini bayon qilinadi. Jumladan, mo'jizakor voqealar aynan shu xabarlar janrida keltiriladi.

Foyda – didaktik janrdagi kichik hajmdagi voqealarni hikoya qiladi. Foyda asosan, insonlarga to'g'ri va solih amallar qilishga undaydi. «Qissai me'roj an-nabiy sallallohu alayhi va sallam» qissasida ham yana bir foyda janri keltirilgan bo'lib, unda ham hikmatning foydalari bayon qilinadi.

Munojot – bu janr asosan payg'ambarlar va xalifalar haqida hikoya qilinuvchi qismlarda mavjud bo'lib, Allohning marhamati va uning himmati bilan to'g'ri yo'l topganliklaridan shukronalik keltirib, endi Allohdan o'zlarini yo'ldan adashtirmasligi uchun munojot qilishlari yoritilgan.

«Qisas ar-Rabg'uziy» asarida ta'kidlanishicha, Odam Atodan Muhammad (s.a.v)gacha bir yuz yigirma to'rt ming payg'ambar o'tganligi aytiladi. Shuningdek, ba'zi payg'ambarlar bir davrda yashaganligi bois bir-biriga zamondosh bo'lib, yonma-yon tarzda hayot kechirishgan. Asarda ular alohida izohlanadi. Xususan, Rabg'uziy o'z asarida Muso bilan Xizirni, Muso bilan Xorunni, Muso bilan Lutni, Dovud bilan Ishmuilni, Xizir bilan Ilyosni, Maxaharqiyo bilan Yunusni zamondosh bo'lib yashaganlarini e'tirof etadi.

Ikki kitobning jamlanmasi bizga yigirma to'qqiz nafar payg'ambar va tarixiy shaxslar haqida hikoya qiladi. Ularning har birida alohida qissalar mavjud. Shuningdek, ularning hayoti, faoliyati haqida hikoya qilinar ekan, ular hadislar, sharqona rivoyat-u hikmatlarni



o'zida jamlaydi va bularning ta'sirida asardagi har bir qissa juda qiziqarli tarzda ifoda etiladi. Xususan, Qur'oni Karimdan oyatlarning keltirilishi ham asarning haqqoniy va aniq ma'lumotlarga asoslanganligini isbotlaydi va asarning ishonchligini ta'minlaydi. Jumladan, «Qisas ar-Rabg'uziy» asari ikkinchi kitobining o'zidayoq etti yuzga yaqin oyat va hadislardan misollar uchramiz. Bu ham o'z o'rnida asarning aniq va ishonchli manbalar asosiga qurilganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilarning yozishicha, Rabg'uziy yaratgan qissa va hikoyatlar zamonaviy o'zbek xalq dostonlari, ertak va qissarlaning vujudga kelishiga xizmat qilib kelmoqda. Umuman olganda, Rabg'uziyning «Qisas ar-Rabg'uziy» asari o'zbek nasrining yirik yodgorligi, turkiy tasavvufning ildizlarini o'zida jamlagan, falsafiy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

### References:

1. Abduvohidova, M. B.(1988). Rabg'uziy va o'zbek klassik prozasi *Adabiy meros*, 4 - son
2. Abdurauf, F (2006). Adabiyot qoidalari. *Tanlangan asarlar*. 4 – jild
3. Homidjon, H (1999). Ko'hna sharq darg'alari. Toshkent.
4. Aysu Ata . ( 1997). Nasiruddin bir Burhanuddin Rabguziy , Kisasuf anbiyo . 21-22 ;
5. Zohidov, P. (2002). Kun tug'ardin kun botarg'a so'zi atgan zot. Toshkent: *O'zbek adabiyoti va san'ati* . 2 ;
6. Kurbaniyazov, M. (2016). Qisasi Rabg'uziy'da folklorizmlar (69 bet) Toshkent: *O'zbek tili va adabiyoti*.
7. Rabg'uziy .(1990) Qisasi Rabg'uziy , Toshkent : Yozuvchi